

MENINGIT -NERV SISTEMASINING XAVFLI YUQUMLI KASALLIGI

Jizzax viloyati Zomin tumani Abu Ali Ibn Sino nomli jamoat salomatligi

texnikumi Nevrologiya fani o'qituvchisi

TOSHMAMATOVA MEHRINISO G'AFFOROVNA

Nerv systemsining yuqumli kasalliklaridan biri Meningitdir. Hozirgi kunda ushbu kasallikning oldini olish chora tadbirlari ancha kuchaytirilgan . Qadimda bu kasallik juda xavfli hisoblanib ,xalq orasida epidemiyani yuzaga keltirgan,90% o'lim bilan yakunlangan.

Meningit o'zi bosh va orqa miya pardasining o'tkir yallig'lanishi hisoblanadi.

Miya pardalari 3 ta qavatdan iborat ;tashqi qavat-qattiq parda ,o'rta qavat; o'rgimchak to'rsimon parda,ichki qon tomirli parda -yumshoq parda .Meningit ushbu yumshoq pardadan boshlanadi keyinchalik qattiq pardagacha zararlash mumkin.Meningit miyaning diffuz hodisasiga ta'sir etadi shuning uchun ham bu kasallik alomatlari ancha og'ir o'tadi .

Meningitga chalingan bemorlarda kuchli bosh og'rig'i,tana haroratining oshishi,qayt qilish ,giperesteziya,hushning qisman yo'qolishi qon bosimining tushib ketishi ensa mushaklar rigitligi kuzatiladi. Kattalarga qaraganda yosh bolalar tez bu kasallikka chalinishadi sababi ularda bosh miyani har xil bakteriya viruslardan himoya qiluvchi barer yaxshi rivojlanmagan bo'ladi , bolalarda lessaj , karneg, brudzinskiy simptomlari uchraydi.

Meningit kasalligining spetsifik qo'zga'atuvchisi meningakokklar hisoblanadi.

Meningitning kelib chiqishiga ko'ra birlamchi va ikkilamchi turlari farqlanadi .

Birlamchi meningit to'g'ridan to'g'ri miya pardalarini zararlaydi. Boshqa organlar zararlanmaydi .

Ikkilamchi meningit bu organizmda boshlangan kasallik fonida kasallikni keltirib chiqargan virus yoki bakteriya miya pardasini zararlaydi ,ya'ni asosiy kasallik (gripp, otit, gamarit va h.k) fonida meningeal belgilar rivojlanadi .

Birlamchi meningitlar ham o'z navbatida yiringli va yiringsiz turlariga bo'linadi, hozirgi kunda birlamchi meningit juda ham uchraydi .

Ikkilamchi meningitlar qizamiq, qizilcha ,shamollash virusi,gerpes virusi organizmni zararlasa klinikasi og'ir kechsa miya pardalarini ham zararlaydi.

Meningitning belgilari: bu kasallikning belgilarini aniqlash juda muhimdir,chunki bu tezda davolashni talab qiladi.

Bosh og'rig'i kuchli va doimiy bosh og'rig'i meningitning birinchi va asosiy belgisi hisoblanadi .

Tana haroratining ko'tarilishi

Yorug'likka sezgirlik (fotofobiya) yorug'likka nisbatan sezgirlik va ko'rish sezgilariga ta'sir etadi

Uyqusizlik

Qayt qilish markaziy holda amalga oshadi

Meningit kasalligini aniqlash va tashxis qo'yish :bu kasallikni zudlik bilan aniqlash zarur sababi asoratlari juda ham xavfli.

Kasallikni aniqlashda aniq ishinchli tahlillar kerak bo'ladi, LYUMBAL PUNKSIYA muhim ahamiyatga ega bunda orqa miya suyuqligi LIKVOR olinadi va laboratoriyaga jo'natiladi.

Qon tahlillari olinadi

Miyani tasvirlash tekshiruvi MRT magnitli rezonansli tekshiruv yoki KT kompyuter tomografiya orqali bosh va orqa miya holati aniqlanadi.

Davolash usullari kasallikni turiga qarab amalga oshiriladi, bakterial turi hozirgi kunda ko'proq uchraganligi sababli antibiotikterapiya amalga oshiriladi

Ushbu kasallikni oldini olish uchun vaksinalar mavjud

Sog'lom turmush tarziga rioya qilish zarur, xalqimizda kasallikni davolagandan ko'ra uni oldini olgan avzal degan oltinga teng so'zlari bor.